

10-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. Hayvonlar nomini toping. Buning uchun **to'liq o'nlik** hosil qiluvchi sonlar juftligini tuzing.



7



4



1



8



5

kosatka

5

sakkizoyoq

3

meduza

9

dengiz yulduzi

2

dengiz oti

6



2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:

$$72 + 8 = 70 + (2 + 8) = 70 + 10 = 80$$

$$48 + 2$$

$$51 + 9$$

$$37 + 3$$

$$33 + 7$$

$$76 + 4$$

$$25 + 5$$



3. Ikki o'quvchi Orol dengizi haqida ma'lumot tayyorladi. Birinchi o'quvchi 11 minut, ikkinchisi esa birinchisidan 2 minut kamroq ma'ruza qildi. Ularning ma'ruzalari jami necha minut davom etdi?



4. Hisoblang va O'zbekistondagi eng katta sun'iy ko'l qanday nomlanishini bilib oling.

A	$12 + 8$	L	$57 + 3$
D	$26 + 4$	O'	$64 + 6$

Y	$32 + 8$	R	$71 + 9$
K	$49 + 1$		

20

40

30

20

80


50

70

60



5. Madina rangli baliq yasash uchun lentalar tayyorladi. Barcha lentalarning umumiy uzunligi qancha?



6. To'g'ri tenglikni toping. Qolganlarini xatolarini to'g'rilab, daftaringizga ko'chirib yozing.

$$48 + 2 = 60$$

$$84 + 6 = 90$$

$$37 + 3 = 30$$

$$75 + 5 = 60$$

$$21 + 9 = 40$$



7. Baliq tanasida joylashgan barcha sonlar yig'indisini hisoblang. Hisoblashning oson usulini o'ylab toping.



8. Madina akvariumga uch xil rangdagi baliqlarni joylashtirmoqchi. Sotuvchidagi baliqlar esa 4 xil rangda.



Baliqlarning barcha mumkin bo'lgan uchliklarini yozing. Necha xil variant chiqdi?



9. Nosoz krandan kunduzi 13 litr, kechasi esa kunduzgidan 6 litr kam suv oqdi. Bir sutkada jami qancha suv oqdi?

10. Hisoblang.

$$21 \text{ dm} + 9 \text{ dm}$$

$$64 \text{ cm} + 6 \text{ cm}$$

$$77 \text{ kg} + 3 \text{ kg}$$

$$83 \text{ kg} + 7 \text{ kg}$$

$$32 \text{ l} + 8 \text{ l}$$

$$23 \text{ l} + 7 \text{ l}$$

